


Mavzu: Muloqot va til. Ogʻzaki kommunikatsiya (nutq).

- ❖ Nutqni rivojlantirish metodikasi til, nutq, nutqiy faoliyat.
- ❖ Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish.
- ❖ Ilk bolalikdagi nutq rivojlanishining ikki davri.



Til – bu ijtimoiy hodisadir. Til tafakkur bilan monand bog‘langani holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo‘ladi. So‘zning insonga, uning xulq-atvoriga ko‘rsatadigan ta’siri barchaga yaxshi ma’lum. **«Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o‘zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur – obyektiv borliqning intihosi, til esa – ifoda usuli, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi. So‘z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi.**



Bola hayoti kattalarning hayoti va faoliyatiga qo‘shilib ketgan. Lekin shunga qaramasdan, ayni paytda bola ularga ta‘sir ko‘rsatishning o‘ziga xos insoniy vositalarining birontasiga ham ega emas. Bu esa rivojlanishning ushbu bosqichidagi asosiy irsiy (genetik) vazifani, ya‘ni kichkintoylarda kattalar bilan muloqot qilishning metod va vositalarini shakllantirish vazifasini belgilab beradi. Emotsional-vositasiz muloqot ushbu yoshdagi asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bolani ajratib qo‘yish, kattalar bilan emotsional aloqalarning kamligi bola hayotining birinchi oylaridan boshlab uning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.





Aloqa

```
graph LR; A[Aloqa] --- B[ko'rsatma funksiyasi]; A --- C[Integrallashuv funksiyasi]; A --- D[Malumot berish funksiyas]; A --- E[Baholash funksiyasi]; A --- F[Ko'rsatmalar funksiyasi]; A --- G[O'qitish funksiyasi]; A --- H[Ta'sir ko'rsatish funksiyasi]; A --- I[Imij yaratish funksiyasi]; A --- J[Ishchilarni habardor qilish funksiyasi]; A --- K[Boshqa funksiyalar];
```

ko'rsatma funksiyasi

Integrallashuv funksiyasi

Malumot berish funksiyas

Baholash funksiyasi

Ko'rsatmalar funksiyasi

O'qitish funksiyasi

Ta'sir ko'rsatish funksiyasi

Imij yaratish funksiyasi

Ishchilarni habardor qilish funksiyasi

Boshqa funksiyalar

*kontekstga tayangan
holda o'xshash so'zlarni,
nutq namunalarini
differensiallash
ko'nikmasi*

*tanish va notanish
doirada o'rganilgan
leksika asosida tuzilgan
nutq namunalarini bilish
ko'nikmasi*

Hozirgi zamon metodikasi

*nutq vaziyatiga tayanib
kontekstdagi kam
uchraydigan notanish
so'zlarni tushunish
ko'nikmasi*

*yangi leksik ma'no
bilan to'ldirilgan
nutq namunalarini
bilish va tushunish
ko'nikmasini*

Samarali muloqot prinsiplari:

Xabarning aniqligi

Tezlik

Ikki tomonlama jarayon

Ishonchlilik

Toliqlilik

Mazmun


Aniqlik

Qobiliyat

Maxfiylik


Iqtisod

Muloqot uslublariga quyidagilar kiradi



O'zingizga yoqqanini tanlang

1 2 3 4 5



орница.ру

Siluet 1

Siz uchun baxt - bu sizga yaqinlaringizga bo'lgan iliq munosabatga ishonchga, siz uchun aziz odamlarning samimiyligiga erishishdir.

Siluet 2

Siz qilayotgan hamma narsa kerakli natija bilan tugasa, o'zingizni chinakam baxtli insondek his qilasiz. Sizning baxtingiz - ishlaringizning muvaffaqiyatli yakunida.

Siluet 3

Siz haqiqiy baxt insonning o'sishi va rivojlanishida ekanligini anglab yetgan insonsiz. Sizning baxtingiz o'z-o'zini rivojlantirishdadir.

Siluet 4

Siz uchun baxt g'alabada. Siz tabiatan lidersiz. Hamma narsa kerakli tarzda ketsa va hech kim sizga xalaqit bera olmasa, siz baxtlisiz.

Siluet 5

Siz go'zallikni qadrlay oladigan insonsiz. Agar hayotingizda haqiqiy, o'zaro his-tuyg'ular va g'ayrioddiy go'zal daqiqalar bo'lsa, siz baxtlisiz

Go‘daklik yoshida bolaning ayniqsa kattalar bilan muloqoti jadal rivojlanadi, dastlabki mehr qo‘yish shakllanadi, ijtimoiy kutishlar vujudga keladi (bola kattalardan muayyan hayotiy vaziyatlarga mos keluvchi harakatlarni kutadi), bola bilan kattalar o‘rtasidagi sherikchilikning ilk ko‘rinishlari shakllana boshlaydi. Bola o‘zining qo‘lidan hali hech narsa kelmasa-da, biroq kattalarning harakatlarini boshqarishni o‘rganadi. Bu hol unda nutqning hali mavjud emasligidan qat’i nazar, ro‘y beradi. Uning ixtiyorida faqat ovoz munosabatlari va imo-ishoralargina mavjud.

Dastlabki soʻzlar emotsional ifodaliligi, vaziyatga mosligi va kommunikativ yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi. Bunday nutq avtonom yoki vaziyatga oid nutq deb ataladi, u faqat bola atrofidagi muhit bilan yaxshi tanish boʻlgan yaqinlarigagina tushunarlidir. Soʻzni dastlabki tushunish muayyan vaziyatni qabul qilish bilan uygʻunlashgandir. Ilk soʻzlar muayyan narsalarga taalluqli boʻlib, umumlashtiruvchi xususiyatga ega emas (soat deganda faqat devorda osilib turadigan soatlar tushuniladi). Soʻz bola xulqining umumiy koʻrinishidan joy oladi va u imo-ishora, qoʻl harakatlari, qarash-nigohlar, ifodali vositalar bilan birgalikda bir soʻzli fikrni bildirishga olib keladi («Xayr», «Ber», «Ol»).

Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davrda bola rivojlanishiga oid ijtimoiy vaziyat sezilarli darajada o‘zgaradi. O‘z yaqinlari bo‘lmish kattalar bilan birgalikda bolaning muloqot doirasiga birinchi navbatda kichkintoyning diqqat-e’tibor va g‘amxo‘rlikka bo‘lgan ehtiyojini qondirishi lozim bo‘lgan boshqa kattalar (**maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlari, tarbiyachi yordamchisi**) ham kirib kela boshlaydilar. Bunday sharoitda ilk yoshdagi bolalarda kattalar bilan narsalar, o‘yinchoqlar va ular bilan bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlar xususida muloqot qilishga ehtiyoj oshadi.

Bolaning o'ziga-o'zi baho berishi emotsional jihatdan yorqin bo'yoqlarga bo'yalgan bo'lib, u yaxshi bola bo'lish, kattalarning talablariga javob berish, ularning ma'qullashlariga erishishga intilish bilan bog'liqdir. Bola hayotining o'zga yili nihoyasida bolalar o'zlariga nisbatan umumiy baholarni beradi: «yaxshi», «katta» va boshq.

Uch yoshga kelib «men» tizimi vujudga keladi. U bolaning o'z ismi orqali («men Yulduzxonman», «men Kamronbekman») o'zining qaysi jinsga mansubligi haqidagi tasavvurlarini (o'g'il bola, qiz bola), ma'qullash, tan olishlariga («men yaxshiman») va mustaqillikka ehtiyojini («men o'zim») o'z ichiga oladi.



Bu kim? metodi



E'tiboringiz uchun
rahmat